

КУТУБХОНАЧИ-МУТАХАССИСНИНГ ИННОВАЦИОН КОМПЕТЕНТИЛИГИ ВА ПРОФЕССИОНАЛ РИВОЖЛАНИШИ: ТУШУНЧАЛАР ТАҲЛИЛИ

Abdurahmonova M.S

Respublika ilmiy pedagogika kutubxonasi bosh kutubxonachisi. T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7295390>

Annotation. Maqola kutubxonachilarining amaliy faoliyati jarayonida shaxsiy tajribalari va bo'lajak kutubxonachilarining faoliyatini tahlil qilish, shuningdek, kutubxonachilarining kreativ faoliyatini rivojlantirish masalalari haqida so'z yuritiladi.

Keywords. axborot-kutubxona, ko'nikma va malakalar, ta'lim tizimi, innovatsion texnologiyalar, innovatsion jarayon, kutubxonachi, talaba, faoliyat, kreativlik.

ИННОВАЦИОННАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ БИБЛИОТЕЧНОГО СПЕЦИАЛИСТА: АНАЛИЗ ПОНЯТИЙ

Annotation. В статье рассматриваются вопросы развития креативной деятельности студентов в системе высшего образования, обоснована важность креативности в деятельности библиотекаря. Анализируются мнения ученых по развитию креативной деятельности.

Ключевые слова. библиотечная информация, образовательный процесс, навыки и умения, образовательная система, педагогические технологии, инновационный процесс, учитель, студент, библиотекарь, деятельность, креативность.

INNOVATIVE COMPETENCE AND PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF THE LIBRARIAN SPECIALIST: ANALYSIS OF CONCEPTS

Abstract. The article considers issues of developing students` creativity at higher education institutions, proves the importance of teachers` creativeness at work. Stated the scholars` ideas on developing future teachers` creative activity.

Key words. information library, higher education institution, education process, skills, education system, pedagogical technology, librarian, innovative technology, future teachers.

KIRISH

Zamonaviy jamiyat ijtimoiy, siyosiy, texnologik, davlat-boshqaruv, iqtisodiy va ekologik sohalardagi global o'zgarishlar va siljishlar bilan shartlangan o'zgarishlarning doimiy ravishda o'sib borishi vaziyatida mavjud bo'ladi. Bu sharoitda kutubxonalar ijtimoiy ahamiyatga ega axborot muassasalari sifatida o'z pozitsiyalarini doimiy rivojlantirishga, yangilashga va mustahkamlashga intilishlari zarur. Muvaffaqiyatli rivojlanish istiqbolli o'zgarishlar yo'lini tanlovchi kutubxonalardagina bor. Innovatsiyalardan samarali foydalanish – o'ta murakkab professional vazifa va uning yechimi kutubxonaning ijtimoiy institut sifatida raqobatbardoshligi va kelgusida rivojlanish sharoiti hisoblanadi.

Jahon tajribasi ko'rsatadiki, yangi kiritilgan tartib-qoidalar muammolari kutubxonachilik faoliyatini yangilash jarayoni sifatida hamisha dolzarb bo'lib kelgan. Kutubxonachilik faoliyatida shaxsan innovatsion jarayonlarga bag'ishlangan xorijiy nashrlar XX asrning 70-yillarida paydo bo'lgan va hozir ular mahalliylarga qaraganda sezilarli tarzda ko'proq. Xorijiy mualliflar: J.Varlejs, J.A.Agaja, R.Depping, S.Hasiewicz, A.-M.Huesmann, V.Jadwabski, W.Jansch, U.Winter va boshqalar tomonidan kutubxonalardagi o'zgarishlarning umumiy

muammolari, shuningdek, yangi kiritilgan tartib-qoidalarning o‘quvchilar uchun bo‘lganiday, kutubxonachilar uchun ham ehtimoliy oqibatlari ko‘rib chiqilgan.

METOD VA METODOLOGIYASI

Mahalliy mutaxassislarining kutubxonachilik innovatsiyasi masalalariga qiziqishi 1990-yillar oxiri – 2000-yillar boshlarida dolzarblashdi va kutubxonalarning uslubiy ishlarini rivojlanishi bilan bog‘landi. Keyingi davrda O‘zbekiston kutubxonalarining innovatsion faoliyatini turli tomonlari, rivojlanish istiqbollarining yangilanishida yuzaga kelgan holatni, ularning ish tajribasini tavsiflovchi ishlar ustunlik qildi .

Innovatsion tajribalar va axborot kutubxona nazariyasiga oid yutuqlarni amaliyotga joriy etish bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Kutubxonachining kasbiy faoliyatiga joriy etish uchun ko‘plab tajribalar vujudga kelmoqda va to‘planmoqda. Biroq kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, kutubxonachilar va bo‘lajak kutubxonachilarda amaliyotda mavjud bo‘lgan tajribalarni o‘zlashtirish ehtiyoji shakllanmagan. Mazkur tajribalarni tanlash va tahlil qilish ko‘nikma va malakalari ham etarlicha tarkib topmagan. Amaliy faoliyat jarayonida kutubxonachilar o‘zlarining shaxsiy tajribalari va faoliyatlarini tahlil qilishga etarlicha e’tibor qaratmayapti.

TADQIQOT NATIJASI

Kutubxonachining kasbiy faoliyati ommaviy hamda ilg‘or bo‘lishi mumkin. Shuni unutmaslik kerakki, innovatsion tajribalar cheklanganlik xarakteriga ega. Shu bilan bir qatorda innovatsion tajribalar yangi elementlarga ham ega bo‘lib, mazkur elementlar kutubxona amaliyoti va nazariyasini boyitish xususiyatiga ega. Innovatsiyalarni yaratish va hamkasblari orasida ommalashtirishda kutubxonachining mavqeyi alohida ahamiyatlidir. Shuning uchun ham muayyan tajribaning asosiy holatlari va ko‘rsatkichlarini amaliyotga kiritish hamda ommalashtirishda sub’ektiv omillarni alohida hisobga olish kerak. Shuningdek, uning variantlarini baholash va jamoada tatbiq etish nihoyatda zarurdir.

Tajribalarni kuzatish va o‘zlashtirish jarayonida uning ob’ekti va yangi jihatlariga alohida e’tibor qaratgan holda amaliyotga joriy etish talab qilinmoqda. Kutubxonachi yangi tajribani amalga oshirishda uning qimmati hamda samaraligiga e’tibor qaratishi kerak.

Innovatsion tajribalar ommaviy xarakter kasb etishi uchun kutubxonachi ob’ektiv kutubxonachilik nazariyalarini o‘zlashtirgan bo‘lishi lozim. Innovatsion tajribalarning turli-tumanligini novatorlik hamda tadqiqotchilik orqali ko‘rish mumkin. Bunda kutubxonachi amaliy faoliyatdan nazariy tahlil va umumalashtirishga o‘tadi. Bunday yondashuvlarda yurtimiz axborot kutubxona tizimiga xos bo‘lgan innovatsion qarashlar va usullar o‘z ifodasini topadi.

Kutubxonachi faoliyatining innovatsiyalarga yo‘nalganligi psixologik kasbiy axborot kutubxona sohaga doir tadqiqotlar natijasini amaliyotiga tatbiq etish imkonini beradi. Zamonaviy axborotlarning o‘z vaqtida ommalashmayotganligi tufayli mazkur yangiliklar kutubxona jamoatsiga etib bormayapti. Innovatsion tadqiqotlar natijasini ommalashtirish uchun amaliyotchilardan olingan natijalar bilan tanishtirish talab etiladi. Kutubxonachilarining yangi tajribalarini ommalashtirish muhim ahamiyatga egaligiga ishontirish hamda ularning tajribalarini qo‘llash ehtiyoji vujudga keladi. Bu yangiliklar mutaxassislar tomonidan tezkor maslahatlar berish, maxsus seminarlar va treninglar tashkil etish, konferensiyalarda chiqishlar qilish, bo‘lajak kutubxonachilarga esa turkum ma’ruzalar o‘qish orqali etkaziladi.

Shu munosabat bilan innovatsion g‘oyalalar va texnologiyalarning ommalashtirish va targ‘ibot qilish ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilari, axborot-kutubxona muassasalarida

ishlaydigan ilg‘or kutubxonachilar tomonidan amalga oshiriladi. Bunday guruhlarni tashkil etish zaruriyat bir qator holatlar bilan ifodalanadi.

1. Innovatsiya muallifi muayyan kasbiy g‘oya yoki yangiliklar istiqboli haqida zarur ma‘lumotlarni va aniq bahoni bera olmaydi.

2. Ilg‘or kutubxonachilar har doim ham o‘z g‘oyalarini ommalashtirish haqida o‘ylayvermaydilar. Chunki bu kutubxonachidan qo‘srimcha vaqt, mehnatni talab qiladi.

3. Yangilik har doim ham uning muallifi tomonidan ilmiy-metodik jihatdan etarlicha asoslanmaydi.

4. Muallif o‘zlarining innovatsiyalari va ularni amaliyotga tatbiq etish yo‘llarini bayon qilishda o‘zları va hamkasblarining shaxsiy xususiyatlari bilan bog‘liq holda to‘siqlarga duch keladilar.

5. Ijodiy guruh o‘z zimmasiga nafaqat kasbiy innovatsiyalarni targ‘ib qilish va ommalashtirish, balki ular asosida kutubxonachilar faoliyatiga tuzatishlar kiritish bo‘lajak kutubxonachilarining kasbiy bilimdonligi va mahoratini boyitish vazifasini ham oladi.

6. Ijodiy guruh a’zolari kasbiy monitoring o‘tkazish, innovatsiyalar-ni tizimli tanlash, yangi g‘oyalar, texnologiyalarni baholash, axborot-kutubxona muassasalari ish tajribalarini boyitish vazifasini ham o‘z zimmasiga oladi.

Axborot-kutubxona sohasiga oid innovatsiyalar o‘zining muayyan o‘lchovlariga ega. Kasbiy innovatsiyalar bo‘lajak kutubxonachilarining kreativ faoliyatini shakllantirishga xizmat qiladigan o‘lchovlari quydagilardan iborat: innovatsion usullarning yangiligi, optimalligi, yuqori natija berishi ommaviy tajribada ijodiy qo‘llash imkoniyatiga egaligi.

Innovatsion usullarning asosiya o‘lchovi ularning yangiligi, ilmiy tadqiqot natijalari hamda ilg‘or kasbiy tajribalar bilan tengligidadir. SHuning uchun ham innovatsion jarayonda faoliyat ko‘rsatishni xohlovchi kutubxonachilar uchun yangilikning asosiya mohiyati nimadan iboratligini bilish muhim ahamiyatiga ega.

Biroq nashrlar oqimining mavjudligiga qaramay, zamonaviy kutubxonashunoslikda kutubxonalarning innovatsion faoliyatidagi ko‘pgina masalalar kam o‘rganilganligicha qolmoqda. Ulardan biri kutubxona xodimining innovatsion faoliyatga tayyorligini belgilovchi kutubxonachi-mutaxassisning innovatsion kompetentliliqi fenomeni hisoblanadi. Bu fenomenning ahamiyati bizning kutubxonachilarimiz tomonidan bir necha bor ta’kidlangan.

MUHOKAMA

Agar bir kutubxonachi uchun o‘tkazilayotgan tajriba yangi hisoblansa, ikkinchisi uchun esa mazkur usul yangi bo‘lmasligi ham mumkin. SHuningdek, bo‘lajak kutubxonachilar uchun ham ayni bir usulning yangilik darajasi har xil bo‘lishi mumkin. SHunday ekan kutubxonachilar ham, bo‘lajak kutubxonachilar ham innovatsion ijodiy faoliyatga ixtiyoriy tarzda o‘z ehtiyojlardan kelib chiqqan holda kirishishlari lozim. Bu o‘z navbatida ularning shaxsiy o‘ziga xosliklari, individual-psixologik xususiyalari bilan bevosita bog‘liqdir.

Bo‘lajak kutubxonachilarining kreativ funksiyalarini shakllantirishga xizmat qiladigan innovatsion usullarning yangiligi bir necha darajalarda namoyon bo‘ladi. Bular: absolyut daraja; lokal-absolyut daraja; shartli daraja; sub’ektiv daraja.

Bu farqlar ularning qo‘llanish sohasi va aniqlik darajasi bilan bog‘liq.

Kutubxonalarning rivojlanishi xodimning faoliyatni tashqi sharoitlarini o‘zgarishiga o‘z vaqtida, mohirona va adekvat reaksiya qilish, yaqinlashib kelayotgan o‘zgarishlarni oldindan ko‘ra bilishi, prognoz qilish, to‘plangan tajribani ob’ektiv baholash va shu asosda asoslangan

qaror qabul qilish qobiliyatiga bog'liq. Xodimlarning kompetentliliqi va harakatlarini motivatsiyalanganligiga, ularga shaxsiy ahamiyatli shaxs sifatida munosabatni uysushtirish vazifasini hal qilishni maqsad qilishi bilan ta'minlanadi. Jaomaning motivatsiyasi asosida xodimlarning ierarxik tuzilmada egallagan o'rnidan qat'i nazar mehnati mazmunini belgilovchi tashkiliy madaniyat qadriyatlari, ya'ni mazkur muassasada hukmronlik qiluvchi kadriyatli tushunchalar, xulq-atvor me'yordi va namunalarining majmui yotadi.

Shunday qilib, xodimning innovatsion tayyorgarligi fenomenini tahlil qilish bir necha fanlar: innovatiqa, psixologiya, menejment va kutubxonashunoslik tutashligida yotuvchi masalalarini o'rganishni talab qiladi.

Innovatsion usullarning o'lchovi kutubxonachi faoliyatida ijobjiy natijalarga erishgandagina namoyon bo'ladi. O'lchovlardagi texnologiya, kuzatuvchanlik, natijalarning qayd etilganligi o'qitishning yangi usullari, metodlarini baholash orqali namoyon bo'ladi. Mazkur o'lchovning ahamiyatli jihat shaxs, uning idroki va tushunchalarini shakllantirishning bir butunligida namoyon bo'ladi.

Innovatsion yangiliklarni ommaviy tarzda amaliyotda qo'llash kasbiy innovatsiyalarni baholashning mezoni sifatida talqin etiladi. Kutubxona amaliyotida mazkur g'oyalar va texnologiyalar tor, cheklangan darajadagi qo'llanish doirasiga ega bo'lib qoladi. Bu asosan mehnat jarayonining texnik ta'minoti va kutubxonachi faoliyatining o'ziga xosligi bilan bog'liq. Bunday vaziyatda kasbiy yangiliklar haqida fikr yuritish ahamiyatsizdir.

Innovatsion kasbiy tajribalarda kutubxonachilikka oid innovatsiyalarni ijodiy qo'llash alohida kutubxonachilar ish faoliyatining boshlang'ich bosqichida namoyon bo'ladi. Mazkur innovatsiyalar tajriba-sinovdan o'tkazilib, ob'ektiv baholangandan so'ng ommaviy tarzda qo'llash uchun taqdim etiladi. Keng ommalashgan, ijobjiy natijalarga erishish imkonini beradigan innovatsion usullardan foydalangan holda bo'lajak kutubxonachilarining kreativ funksiyalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Innovatsiyalarni baholash jarayonida muayyan bilimlar va ulardan foydalanish mezonlarini bilish bo'lajak kutubxonachining kasbiy ijodining rang-barang shakllarini o'zlashtirishi uchun qulay sharoit yaratadi. Kutubxonachilik madaniyatining oddiy esda qolgan bilimlarini takrorlash shaklidan boshlab, kutubxona jamoasiga ma'lum bo'lgan g'oyalar, konsepsiylar, texnologiyalarni o'z shaxsiy faoliyatiga singdirishda ularni evristik, kreativ ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga qadar bo'lajak kutubxonachilarining kundalik harakati mazmunini tashkil etishi lozim.

Axborot-kutubxona muassasalari kutubxonachilarining tajribalari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, kasbiy yangiliklarni amaliyotga joriy etishda sustkashlikka yo'l qo'yilmoqda. Sohaga oid innovatsiyalarning

aksariyat qismi amaliyotga tatbiq etilmay qolayotganligining ikkita asosiy sababini ajratib ko'rsatish mumkin. Bular:

1. Axborot-kutubxona muassasalariga kirib kelayotgan innovatsiyalar amalda zarur ekspertiza va tajriba-sinovlardan o'tmayapti.
2. Kasbiy yangiliklarni amaliyotga joriy etish tashkiliy, texnik, shaxsiy psixologik jihatdan oldindan tayyorlanmayapti.

Sohaga oid innovatsiyalarning mazmuni va o'lchovlari haqidagi aniq tasavvur ularni qo'llash metodikasi bo'lajak kutubxonachilarining ongi va faoliyatiga singdirilishi birinchi darajali ehtiyojga aylanmoqda.

Axborot-kutubxona muassasasi hayotiga kasbiy innovatsiyalarni keng ko‘lamda olib kirish uchun unda yangilik muhitini yaratish, muayyan axloqiy-psixologik holatni shakllantirish, tashkiliy, metodik, psixologik xarakterdagi chora-tadbirlarni qo‘llash talab etiladi. Buning uchun, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak kutubxonachilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish, ularni kasbiy innovatsiyalar bilan izchil qurollantirib borish, innovatsion usullarni tahlil va tatbiq qilishga o‘rgatish talab etiladi. Oliy ta’lim muassasasida innovatsion muhitni vujudga keltirmaslik bo‘lajak kutubxonachilarni tayyorlash sifatiga ham keskin ta’sir ko‘rsatadi. Natijada talabalar amalda kasbiy yangiliklardan etarlicha xabardor bo‘lmaydilar. Bu esa, o‘z navbatida, ulardagi ijodkorlik, yaratuvchanlikning rivojlanmasligiga, aksincha, so‘nib borishga sabab bo‘ladi. Yosh kutubxonachilarning innovatsiyalarni izchil o‘zlashtirganliklari sababli kutubxona jamoasidagi qulay muhitda faoliyat ko‘rsatayotgan kutubxonachilar orasidagi qaramaqshiliklar darajasi pasayib, kasbiy faoliyatdagi eski qoliplar bartaraf etiladi. Axborot-kutubxona muassasasidagi innovatsion muhitda kutubxonachining yangilikka bo‘lgan munosabati namoyon bo‘ladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bo‘lajak kutubxonachilarning hosil qilgan kasbiy ko‘nikma, malakalari va tajribalarini tashxislash hamda ularni innovatsion metodlari bilan qurollantirish hamda kasbiy pedagogik ta’lim jarayonini innovatsion g‘oyalar asosida qayta qurish talabalarning kreativ faoliyatini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Buning natijasida bo‘lajak kutubxonachilarni ijodiy faoliyat ko‘rsatishga, tashabbuskorlikka undash imkoniyati vujudga keladi.

REFERENCES

1. Karimova G., Azamatova N. Bo‘lajak pedagog kasbiy mahoratining shakllanish mezonlari. “Xalq ta’limi” jurnali. – Т., 2006. 3-сон. 54-57-б.
2. Нишоналиев У. Инновационные педагогические технологии обучения и развития. – В сб.материалов научно-практической конференции «Актуальные вопросы профессионального воспитания молодёжи». – Алма-Ата: Респ. издат. каб. Казахск. акад. образования им. И.Алтынсарина, 2000. – С. 235-240.
3. Сластенин В.А., Подымова Л.С. Педагогика: Инновационная деятельность. – М.: ИЧП «Издательство Магистр», 1997. – С. 224.
4. Маркетинг-современная концепция управления библиотекой: Науч-реф.сб/Сост.- С.Д.Колегаева; Рос, гос.-гос.-б-ка.-М.,1994.-146 с.
5. Качанова Е.Ю. Руководитель библиотеки и библиотечный менеджер: изменение слов или представлений./Непрерывное образование.-2001.-№3/4.- С.35-49.
6. Сабинина Т.Б. Организационная культура как фактор развития персонала библиотеки: Автореф.дис.кан.пед.наук/С.Петербург.гос.ун-т культуры и искусств.- СПб.2002.-22 с.
7. Фаниева Б. Подготовка кадров в информационно-библиотечной сфере. “Кутубхона.уз”.-2018.-№ 4.-Б.35-40.
8. Рахматуллаев М.А., Фаниева Б.И. Ахборотлаштириш ва кутубхона-шунослик таълим йўналиши бакалаврларининг битирув малакавий ишларини бажаришга кўйиладиган талаблар/ Услубий қўлланма.- Тошкент: Алоқачи, 2015.-62 б. (31)

9. Dzhuraev R. K., Karakhanova L. M. Model of the organization of research activities of 10th grade students in teaching physics and biology //International journal of discourse on Innovation, integration and education. – 2021. - Jild 2. – №. 01. – P.296-300.
10. Мусахоновна Қ. Л. УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА БИОЛОГИЯ ФАНИДАН САМАРАДОРЛИККА ЭРИШИШДА ЭЛЕКТРОН ТАЪЛИМИЙ ВОСИТАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АСОСЛАРИ //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. В3. – С. 577-585.
11. Juraev R. X., QORAXANOVA L. M. fizika va biologiyani o'qitishda 10-sinf o'quvchilarining tadqiqot faoliyatini tashkil etish modeli // innovatsiya, integratsiya va ta'lif bo'yicha xalqaro discourse jurnali. – 2021. - Jild 2. – №. 1. – P.295-299.
12. Karakhonova L. M. Using the electronic educational resources in biology lessons //INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILOSOPHY, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY. – 2019. – С. 35-39.
13. Karakhonova L. M. USE OF MEDIERE RESOURCES IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF BIOLOGY IN SCHOOLS //International Scientific Review of the problems of pedagogy and psychology. – 2018. – С. 68-70.
14. Jurayev R. K., Karakhonova L. M. Scientific And Methodical Bases Of The Use Of Electronic Educational Resources In Teaching Biology In General Educational Schools //International Journal of Advanced Science and Technology. – 2020. – Т. 29. – №. 8. – С. 3500-3505.
15. Musokhonovna K. L. ICT-As a means of achieving new educational results in teaching natural disciplines in secondary schools //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 10. – С. 315-321.
16. Juraev R. X., Karaxonova L. M. media ta'limi mактаб о'quvchilarining ta'lim sifatini oshirish omili sifatida // hayot davomida ta'lim: barqaror rivojlanish uchun uzlucksiz ta'lim. – 2013. - S. 322-323.
17. Каражанова Л. 6. DEVELOPMENT OF STUDENTS'KNOWLEDGE BASED ON THE USE OF 3D EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE BIOLOGY EDUCATION //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2020. – №. 2. – С. 55-59.
18. Musaxonovna K. L. General secondary schools requirements for the introduction of informed educational resources for the development of natural sciences //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 5. – С. 855-860.
19. Juraev R. X., Karaxonova L. M. iqtidorli bolalarni ta'lim muassasalari tomonidan pedagogik qo'llab-quvvatlash //fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2022. - Jild 3. – №. 4. - 66-70 betlar.
20. Karaxanova L. M. tabiiy fanlarni o'qitishda zamonaviy ochiq ta'limda yangi interaktiv elektron manbalar // ta'lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar. – 2021. - Jild 2. – №. CSPI conference 1. - P. 1303-1305.
21. Karaxanova L. M. Development of students' knowledge based on the use of 3d educational technologies in the Biology education //Таълим ва инновацион тадқиқотлар.- Buxoro. – 2020. - 55-59 betlar.

22. Сафарова Р. Г. и др. Ўқувчи-ёшларни оммавий маданият хуружларидан ҳимоя қилишнинг назарий-методологик асослари. – 2017.
23. Kharaxonova L. M. SPECIFIC ASPECTS OF MEDIA EDUCATION AND ITS USE IN HIGH SCHOOLS //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. CSPI conference 3. – С. 278-284.
24. Musakhonovna K. L. Peculiarities of using modern educational tools to increase the effectiveness of teaching the natural sciences and direct students to independent activities //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – Т. 11. – №. 5. – С. 182-191.
25. Kh D. R., Karakhonova L. M. Media education as a factor of increasing the quality of teaching schoolchildren //Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. – 2013. – Т. 11. – №. 2 (eng). – С. 287-288.
26. Караканова Л. МУЛЬТИМЕДИЙНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ ЗООЛОГИИ //Збірник наукових праць Уманського державного педагогічного університету. – 2011. – №. 1.
- 27.